

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/27.09.2024.Ped.05.10 RAQAMLI ILMIY KENGASH

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI

MELIQO‘ZIYEV AZIZJON ADXAMJON O‘G‘LI

**11-15 YOSHLI ERKIN KURASHCHILARNING MAXSUS JISMONIY
TAYYORGARLIGINI RIVOJLANTIRISH USLUBIYATI**

**13.00.04 - Jismoniy tarbiya, sport mashg‘ulotlari, sog‘lomlashtirish va adaptiv jismoniy
tarbiya nazariyasi va metodikasi**

**PEDAGOGIKA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Farg‘ona – 2025

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
педагогическим наукам**

**Contents of Dissertation Abstract of the Doctor of Philosophy (PhD) on
Pedagogical Sciences**

Meliqo‘ziyev Azizjon Adxamjon o‘g‘li

11-15 yoshli erkin kurashchilarning maxsus jismoniy tayyorgarligini rivojlantirish
uslubiyati.....3

Меликузиев Азизжон Адхамжон угли

Методика развития специальной физической подготовки 11-15 летних борцов
вольного стиля.....25

Meliqo‘ziyev Azizjon Adxamjon o‘g‘li

Methodology for developing special physical training of 11-15 ear old freestyle
wrestlers.....51

E‘lon qilingan ilmiy ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works.....55

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/27.09.2024.Ped.05.10 RAQAMLI ILMIY KENGASH

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI

MELIQO‘ZIYEV AZIZJON ADXAMJON O‘G‘LI

**11-15 YOSHLI ERKIN KURASHCHILARNING MAXSUS JISMONIY
TAYYORGARLIGINI RIVOJLANTIRISH USLUBIYATI**

**13.00.04 - Jismoniy tarbiya, sport mashg‘ulotlari, sog‘lomlashtirish va adaptiv jismoniy
tarbiya nazariyasi va metodikasi**

**PEDAGOGIKA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Farg‘ona – 2025

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.4.PhD/Ped6757 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi Farg'ona davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Farg'ona davlat universiteti veb-sahifasining (www.fdu.uz) va "Ziyonet" Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Uraimov Sanjar Ruzmatovich

pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Rasmiy taqrizchilar:

G'ofurov Azizbek Umarjonovich

psixologiya fanlari doktori (DSc), v.b. professor

Tursunov Shuhrat Sabitjanovich

pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),
professor v.b

Yetakchi tashkilot:

Buxoro davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Farg'ona davlat universiteti huzuridagi PhD.03/27.09.2024.Ped.05.10 raqamli Ilmiy kengashning 2025 yil "___" _____ soat _____dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 111709, Farg'ona viloyati, Farg'ona shahri, Murabbiylar ko'chasi, 19-uy. Tel.: (+99873) 244-44-02; faks: (Q99873) 244-44-93; e-mail: info@fdu.uz).

Dissertatsiya bilan Farg'ona davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 150100, Farg'ona shahri, Murabbiylar ko'chasi, 19-uy. Tel.: (+99873) 244-44-02, e-mail: fardu_info@umail.uz

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "___" _____ kuni tarqatildi.

(2025-yil "___" _____ da _____ raqamli reestr bayonnomasi)

Sh.X.Xankeldiyev

Ilmiy darajalar beruvchi

Ilmiy kengash raisi, p.f.d., professor

A.T.Xasanov

Ilmiy darajalar beruvchi

Ilmiy kengash kotibi, p.f.b.f.d., dotsent

N.T.To'xtaboyev

Ilmiy darajalar beruvchi

Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar
raisi, p.f.d. (DSc), professor

KIRISH (falsada doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi. Dunyo miqyosida kurash va unga yaqin yakka kurash turlari bo'yicha olib borilgan ilmiy izlanishlar sportchilarning jismoniy salohiyatini baholash hamda ularni maqsadga yo'naltirib tayyorlashda murakkab yondashuvlarni shakllantirdi. Tadqiqotlar texnik va taktik harakatlarni raqamli modellashtirish, yosh davrida kuch, tezlik va chidamlilikning qanday rivojlanishini o'rganish, mashg'ulot yuklamalari bilan tiklanish jarayonlarini energiya tizimlari bilan muvofiqlashtirish kabi masalalarga e'tibor qaratadi. Xalqaro amaliyot shaxsga yo'naltirilgan yondashuvni tanlab, biomexanika, kardiorespirator va metabolik testlar, akselerometrlar hamda psixofiziologik sensorlar orqali seleksiya mezonlarini takomillashtirish, jarohatlarning oldini olish va ruhiy tayyorgarlikni qo'llab-quvvatlashga imkon yaratmoqda. Faktlarga tayanadigan metodik tavsiyalar sportchi raqobatbardoshligini oshirish, mashg'ulotlardan maksimal natija olish va turli sharoitlarga moslashuvchan dasturlar tuzish imkonini beradi, natijada kurash nazariyasi va amaliyoti global miqyosda boyib bormoqda.

Jahonda kurash sporti bo'yicha o'smir sportchilarning tayyorgarligini ilmiy asosda baholash va optimallashtirishga qaratilgan yondashuvlar evolyutsion tarzda boyib bormoqda, multidisplinar tadqiqotlar antropometrik va biomexanik ko'rsatkichlarni Z-ball orqali normallashtirib, omil tahlili va korrelyatsion matritsa yordamida ustuvor jismoniy sifatlarni ajratish, yuklama-tiklanish nisbatini periodizatsiya modellarida hisoblash hamda natijalar ishonchliligini t-testlar bilan tekshirish kabi metodlarni yagona tizimga birlashtirish bilan cheklanmay, shu bilan birga, yurak urish tezligi va laktat chegarasi monitoringi, elektromiografiya va nevrofiziologik ma'lumotlarni integratsiya qilish, sportchilarning psixofiziologik holatini baholash uchun anketalar va intervyular, mashg'ulot yuklamalarini modellashtirish hamda milliy va xalqaro mezonlar asosida o'sish dinamikasini taqqoslash singari uslublar ilgari surilmoqda¹.

O'zbekistonda kurash, xususan, erkin kurashni rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida izchil davom etmoqda: sport maktablari va maxsus markazlar tarmog'ini kengaytirish, ommaviy musobaqalar, yig'inlar va treninglar orqali yoshlarni sportga qiziqishini oshirish, iqtidorli kurashchilar uchun xalqaro mezonlarga mos tayyorgarlik muhitini yaratish ishlari tizimli yo'lga qo'yilgan. Ushbu jarayonda yosh erkin kurashchilarning maxsus jismoniy tayyorgarligini ilmiy asoslash, mashg'ulotlarni bosqichma-bosqich rejalashtirish hamda natijadorlikni oshirishga qaratilgan izlanishlar alohida ahamiyat kasb etmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoev ta'kidlaganidek, "Sport – sog'lom xalq, sog'lom jamiyatning tayanch ustunidir", ya'ni asosiy vazifa ommaviy va oliy sportni uyg'un ravishda rivojlantirib, barkamol avlod tarbiyalashdan iborat².

¹ <https://www.mdpi.com/1660-4601/20/4/3516>

² Shavkat Mirziyoyev, —Sport – sog'lom xalq, sog'lom avlodning tayanch ustuni,|| president.uz, 13 fevral 2025. Murojaat qilingan sana: 20 avgust 2025. <https://president.uz/oz/lists/view/7870>

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-martdagi PF-5368-sonli “Jismoniy tarbiya va sport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2020-yil 25-yanvardagi PF-5924-sonli “O‘zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonlarida, 2020-yil 4-noyabrdagi PQ-4881-sonli “Kurash milliy sport turini rivojlantirish va uning xalqaro nufuzini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2020-yil 3-noyabrdagi PQ-4877-sonli “Jismoniy tarbiya va sport sohasida kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish va ilmiy salohiyatni oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2022-yil 29-iyundagi PQ-336-sonli “Sport kurashlarining Olimpiya turlarini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorlarida, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasini 2014-yil 3-iyundagi 141-sonli “O‘zbekiston Respublikasi oliy harbiy ta’lim muassasalariga tanlash tartibi va qabul qilish qoidalari to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida”gi Qarorida hamda sohaga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga bog‘liq holda bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Hozirda 11-15 yoshli erkin kurashchilar uchun maxsus tayyorgarlikni tizimli takomillashtirish, mashg‘ulot dasturlarini bosqichma-bosqich rejalashtirish hamda yuklamani yoshga oid fiziologiyaga mos ravishda belgilash muhim ilmiy masala sanaladi. Bu borada, umumiy qabul qilingan nazariy tamoyillar va xorijiy tajriba asos sifatida o‘rganilib, jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasini dolzarb mavzularidan biriga aylangan. Ayniqsa, ushbu o‘smirlik davrida o‘shish fazasini tezligi hamda kuch, tezkorlik va chidamlilik sifatlarini birdek rivojlanishi sport tibbiyoti va ta’lim metodikasi yo‘nalishidagi ko‘plab ilmiy izlanishlarning diqqat markazida bo‘lib, mazkur jarayonni muvaffaqiyatli ta’minlash uchun mamlakatimizda va xorijdagi yirik akademik markazlarda bosqichli nazorat va omilli tahlil qilishdan keng foydalanish an’anasi shakllangan. Shu bois, o‘smir kurashchilarni maxsus jismoniy tayyorgarlikning ustuvor omillarini ilmiy asosda aniqlash va mashg‘ulot jarayoniga tatbiq etish bo‘yicha samarali mexanizmlarni ishlab chiqish, yuklamani yoshga oid fiziologik xususiyatlarga muvofiq tartibga solish hamda jarohatlar profilaktikasini ta’minlash – zamonaviy kurash nazariyasi va metodikasini asosiy yo‘nalishlaridan biri sifatida e’tirof etilmoqda.

Mamlakatimiz olimlaridan F.A.Karimov, N.M.Yusupov, Sh.Tursunov, O.P.Arslonov va boshqalar yosh kurashchilar tayyorgarligini rivojlantirishda, avvalo, umumiy jismoniy asosni mustahkamlab, keyinchalik kuch, tezlik va

chidamlilikni bosqichma-bosqich oshirish lozimligini ta'kidlashgan³. Ular texnik-taktik tayyorgarlikni jismoniy mashg'ulotlar bilan uyg'unlashtirib, koordinatsion mashqlardan muntazam foydalanish, yuklamani sportchining yoshi va fiziologik xususiyatlariga moslashtirish kerakligini ko'rsatganlar. Tadqiqotchilar 11-13 yoshda umumiy harakatchanlik va egiluvchanlikni rivojlantirish, 14-15 yoshda esa kuch va tezkorlik mashqlarini bosqichma-bosqich kiritish bo'yicha ilmiy-uslubiy tavsiyalar berishgan.

Mustaqil davlatlar hamdo'stligi olimlarining tajribasida erkin kurash bo'yicha 11-15 yoshdagi sportchilarni tayyorlashda, avvalo, keng qamrovli jismoniy bazani mustahkamlash, keyin esa bosqichma-bosqich maxsus mashg'ulotlar o'tkazish zarurligi nazariy va amaliy jihatdan Y.V.Platonov, L.P.Matveev, A.Petrov, S.F.Kurdirbaylo kabilar tomonidan o'rganilgan, o'smir kurashchilarda umumiy tayyorgarlikdan maxsus tayyorgarlikka o'tish jarayonini tadqiq qilgan holda, davriylilik va yuklamalar quvvatini me'yorlash (davriylashtirish) kabi tamoyillarga alohida urg'u berish lozimligi ta'kidlangan, yosh sportchilarning kuch, tezkorlik va chidamlilik sifatlarini bosqichma-bosqich shakllantirish kurash texnik-taktik ko'nikmalari bilan hamohang olib borilishi lozimligi nazariy jihatdan asoslangan⁴.

Yevropa va Amerika olimlari L.P.Matveev, A. Petrov, S.F.Kurdirbaylo, G.Danko, M.Baić, A.Faigenbaum va boshqalar o'smir sportchilar tayyorgarligini davriy rejalashtirish, maxsus mashqlar orqali kuch, tezlik, koordinatsiya va chidamlilikni bir vaqtning o'zida rivojlantirish mumkinligini ko'rsatdilar. Xulosa qilib aytganda, mavjud adabiyotlar alohida sifatlarni o'rganishga yo'naltirilgan bo'lsa-da, 11-15 yoshdagi kurashchilarning biologik xususiyatlarini inobatga olgan holda individual yuklamalarni belgilash va texnik-taktik tayyorgarlik bilan uyg'unlashtirilgan kompleks dastur ishlab chiqishga oid izchil ilmiy takliflar kam⁵.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, 11-15 yoshli erkin kurashchilarning maxsus jismoniy tayyorgarligini oshirishga oid mavjud ilmiy-uslubiy adabiyotlarda kuch, tezlik, chidamlilik va koordinatsiyani rivojlantirish tamoyillari alohida-alohida yoritilgan bo'lsa-da, hozirgacha ushbu yosh guruhi uchun biologik xususiyatlar va o'zlashtirish darajasiga mos individual yuklamalarni belgilab beruvchi faktorli analizga tayangan kompleks mashg'ulot dasturi, texnik-taktik tayyorgarlik bilan uyg'unlashgan maxsus mashqlar majmuasi, yuklama–tiklanish nisbatini hisobga

³ Керимов Ф.А., Тастанов Н.А., Қодиров Э.И. Греко-римская борьба. Учебно-методическое пособие. Ташкент, «PRESS NASHRIUOTI», 2017. — 132 с.; Юсупов Т.Т. (2023). Методика обучения техническим и тактическим действиям в вольной борьбе // Журнал междисциплинарных инноваций и научных исследований в Узбекистане, 24, 2023. — С.23; Турсунов Ш.С. Методы развития выносливости, гибкости и ловкости в греко-римской борьбе. Учебно-методическое пособие. «Zamon poligraf», Ташкент, 2017. — 79 с.; Арслонов Қ.П. (2024). Общая и специальная физическая подготовка подростков-бойцов // Philosophical and Pedagogical Sciences Procedia, 49(49), 2024. — С.10-15

⁴ Платонов В.Н. Двигательные качества и физическая подготовка спортсменов / М.: Спорт., 2019. — 656 с; Матвеев.Л.П. Методика физического воспитания/ Л.П.Матвеев. — М.: Физкультура и спорт, 2021. — 520 с; Petrov A. (1986). Freestyle and Greco-Roman Wrestling: O'quv qo'llanma. — Lozanna: FILA, 1986. — 257 p; Курдыбайло.С.Ф. Врачебны контроль в адаптивной физической культуре: учебное пособие / С.Ф. Курдыбайло, С.П. Евсеев, Г.В. Герасимова. - М.: Советский спорт, 2003. — 184 с.

⁵ Danko G.P. Technologies for the Use of Physical Training Methods in Adolescent Freestyle Wrestlers // N.P. Dragomanov nomidagi DPUI Scientific Journal, Series 15: Issues in Physical Education 1(173), 2024. — B.54-60; Baić M. The Starting Age and Athletic Experience in Wrestling: Trends Between 2002 and 2012 // Kinesiology, 46(1), 2014. — P.94-102; Faigenbaum A.D. The NSCA Updated Position Statement on Strength Training for Youth // Journal of Strength and Conditioning Research, 23(5 Suppl), 2009. — P.60-S79.

olgan holda jismoniy sifatlarni optimallashtirish modeli hamda jarohatlarni profilaktika qilish va psixologik tayyorgarlikni birlashtirgan integral milliy konsepsiya hali ishlab chiqilmagan. Ayni shu ilmiy bo'shliq dissertatsiya tadqiqotining ilmiy dolzarbligini belgilab beradi.

Tadqiqotni dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Farg'ona davlat universitetining 2021-2025 yillarga mo'ljallangan ilmiy tadqiqot ishlari rejasining "Oliy va o'rta maxsus ta'lim muassasalarida jismoniy tarbiya tizimining ilmiy-metodik asoslarini o'rganish" ilmiy tadqiqotlari yo'nalishlari doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi – 11-15 yoshli erkin kurashchilarning maxsus jismoniy tayyorgarligini oshirishning ilmiy-metodik asoslarini takomillashtirish.

Tadqiqotning vazifalari:

11-15 yoshli erkin kurashchilarning maxsus jismoniy tayyorgarlik ko'rsatkichlarini FA/3 usuli yordamida tahlil qilib, latent omillarni aniqlash hamda kuch, tezlik, koordinatsiya va chidamlilik sifatlari asosida periodizatsiyalangan mashg'ulot rejasini shakllantirish;

K3×4 mikrosikl doirasida yuklama ko'rsatkichlarini algoritmik tarzda yangilab turuvchi to'liqsimon boshqaruv tizimini yaratish, uni tajriba guruhida qo'llab, maxsus jismoniy tayyorgarlik dinamikasi va uzoq muddatli rivojlanish traektoriyasiga ta'sirini o'rganish;

sportchilarning mushak-skelet tizimi yetilishi, biologik yoshi va funksional holatini baholab, yuklama hajmi va murakkabligini individual darajalash uslubiyatini ishlab chiqish, bu yondashuvning jarohat xavfi, motivatsiya va ishtirok davomiyligiga ta'sirini aniqlash;

faktor yuklamalari, Z-ball standartlashtirish va guruhlararo taqqoslash usullarini qo'llab, taklif etilgan mashg'ulot dasturi samaradorligini an'anaviy dastur bilan solishtirish, ko'p o'lchovli ustunlikni aniqlash va musobaqaviy tayyorgarlik mezonlarining o'sishini ilmiy-statistik asosda isbotlash.

Tadqiqotning obyekti – sport maktablarida tahsil olayotgan 11–15 yoshli erkin kurashchilarning jismoniy tayyorgarlik jarayoni.

Tadqiqotning predmeti – 11–15 yoshli sportchilarni maxsus jismoniy tayyorlashga qaratilgan vosita va usullar majmuasi.

Tadqiqotning usullari. Ilmiy-uslubiy adabiyotlarni tahlil qilish, anketa-so'rovnoma, pedagogik kuzatuv, pedagogik testlash, pedagogik tajriba, matematik-statistik usullar.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

FA/3 yondashuviga tayanib, 11-15 yoshli erkin kurashchilarning maxsus jismoniy tayyorgarlik ko'rsatkichlari latent strukturasi o'rganish va ularni kuch, tezlik, koordinatsiya va chidamlilik kabi asosiy omillar bo'yicha tasniflash metodikasi ishlab chiqildi hamda tahlil natijalariga ko'ra, fosfagen energiya tizimi uchun mo'ljallangan qisqa muddatli, yuqori jadallikdagi mashqlar birinchi bosqichda ustun qo'llanilib, mashg'ulot rejasi ilmiy asosda periodizatsiya qilindi;

K3×4 mikrosikl doirasida yuklamalarni iterativ tarzda yangilab, musobaqagacha bo'lgan tayyorgarlik jarayonini to'liq model asosida boshqarish konsepsiyasini ishlab chiqish hisobiga sportchilarning maxsus jismoniy

tayyorgarlik dinamikasi tezlashtirildi va uzoq muddatli rivojlanish traektoriyasi individual fiziologik imkoniyatlarga mos holda optimallashtirildi;

sportchilarning mushak-skelet tizimining yetilishi, biologik yoshi hamda funksional holatini baholashga asoslangan yuklama ko'rsatkichlarini individual rejalashtirish va mashqlar murakkabligini darajalash tizimi taklif etildi hamda mazkur yondashuv jarohatlar xavfini pasaytirib, sportchilar motivatsiyasini va mashg'ulotlarda ishtirok davomiyligini sezilarli darajada oshirdi;

faktor yuklamalari, Z-ball standartlashtirish va guruhlararo solishtirishlarni integratsiya qilgan statistik tahlil dasturi ishlab chiqildi va bu tahlil an'anaviy trening dasturlari bilan taqqoslaganda ko'rsatkichlarning ko'p omilli ustunligini va musobaqaviy tayyorgarlik mezonlarining sezilarli o'sishini ilmiy asosda isbotladi.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

faktor tahlili asosida 11-15 yoshli erkin kurashchilar uchun maxsus mashg'ulot modeli ishlab chiqildi. Bu modelda sportchilarning jismoniy va biologik xususiyatlari hisobga olinib, kuch, tezlik, chidamlilik, koordinatsiya va reaksiya tezligini rivojlantirishga qaratilgan mashqlar to'plami shakllantirildi. Murabbiylar uchun tayyorgarlik jarayonini ilmiy asosda tashkil etish bo'yicha qo'shimcha tavsiyalar berildi. Mazkur metodika Farg'ona viloyatidagi sport maktablarida joriy etilgach, sportchilarning kuch, chidamlilik, tezkorlik va harakat koordinatsiyasi ko'rsatkichlari o'rtacha 15 %dan ortiq yaxshilandi; jarohatlar kamaydi va musobaqa natijalari barqarorlashdi. Shuningdek, muntazam testlar yordamida skelet-mushak tizimi va gormonal o'zgarishlarni, psixologik xususiyatlarni baholash orqali sportchilarning o'sish sur'atini kuzatib borish bo'yicha monitoring tizimi takomillashtirildi. Bu yondashuv individual kamchiliklarni tuzatish, yuklamalarni to'g'ri rejalashtirish va mashqlar murakkabligini bosqichma-bosqich oshirish imkonini berdi;

maxsus jismoniy tayyorgarlik ko'rsatkichlarini omillar asosida tahlil qilish va tizimlashtirish uslubi ishlab chiqildi. Jismoniy rivojlanish sur'atini real vaqt rejimida monitoring qilish, jarohatlarning oldini olish, sport motivatsiyasini mustahkamlash va individual yuklamalarni belgilash bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqildi. Eng muhim jismoniy sifatlar – kuch, tezlik, koordinatsiya va chidamlilikni o'rganish orqali mashg'ulot rejasini ilmiy asoslash imkoniyati yaratildi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Natijalarining ishonchliligi tajriba doirasida o'lchovlarning yetarli hajmda va vakillikda olib borilganligi, ma'lumotlarning kompyuter dasturlari yordamida qayta tahlil qilinganligi hamda statistik testlar orqali ishonchliligi tekshirilgani bilan izohlanadi. Natijalar mamlakatimiz va xorijiy tadqiqotlar bilan taqqoslangan, berilgan xulosalar va tavsiyalar esa yosh kurashchilarni tayyorlash jarayonidagi nazariy va metodik muammolarni hal etishga qaratilgan ilmiy asoslangan takliflardir.

Tadqiqotning ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati pedagogik tajribalarda 11-15 yoshli erkin kurashchilarning maxsus jismoniy tayyorgarlik ko'rsatkichlarini omilli tahlil qilish yordamida tizimlashtirish metodikasi, jismoniy rivojlanish sur'atini muntazam test sinovlari asosida doimiy monitoring qilish yordamida real vaqt rejimidagi mashg'ulot

dasturi, jarohatlarni oldini olish, sport motivatsiyasini mustahkamlash va individual yuklamani belgilash bo'yicha takomillashtirilgan uslubiy tavsiyalar ishlab chiqilganligi, jismoniy tayyorgarlikka ta'sir ko'rsatadigan eng muhim omillarni (kuch, tezlik, koordinatsiya, chidamlilik) aniqlash orqali mashg'ulot rejasi ilmiy jihatdan shakllantirilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati olingan natijalar asosida yosh kurashchilar bilan ishlaydigan murabbiylar uchun mo'ljallangan "FT omillari asosida erkin kurash mashg'ulotlarini rejalashtirish" bo'yicha uslubiy qo'llanma ishlab chiqilgan. Ishlab chiqilgan yangi uslubiyat turli sport maktablariga joriy etilgan, sportchilarning jismoniy tayyorgarlik ko'rsatkichlarining o'sish sur'ati, musobaqalarga tayyorgarlik sifati, jarohat profilaktikasi va motivatsiya darajasi yaxshilangan. Tadqiqotlarda olingan natijalar yuzasidan xulosa va tavsiyalar respublikaning sport tizimida jismoniy tayyorgarlik jarayonini takomillashtirishga xizmat qiladi, uslubiyatni amaliyotga joriy qilinishini samaradorligi tajribalarda tasdiqlangan.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. 11-15 yoshli erkin kurashchilarning maxsus jismoniy tayyorgarligini sport mashg'ulotlari jarayonida oshirish bo'yicha qo'llaniladigan innovatsion uslubiyatlarni asoslash bo'yicha o'tkazilgan tajribalarda olingan ilmiy natijalar asosida:

11-15 yoshli erkin kurashchilarning maxsus jismoniy tayyorgarligi ko'rsatkichlarini faktorli (ko'pomilli) tahlil qilish usuli doirasida ishlab chiqilgan mashg'ulot rejasini tajribalarda asoslab, jismoniy tayyorgarlikka ta'sir ko'rsatadigan eng muhim omillarni (chaqqonlik, kuch, tezkorlik, egiluvchanlik, chidamlilik) aniqlash yordamida ishlab chiqilgan yangi mashg'ulot rejasini ilmiy jihatdan takomillashtirishga oid taklif va tavsiyalar Farg'ona viloyati Farg'ona shahar 1-son sport maktabi erkin kurashchilarining o'quv-trenirovka jarayoniga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Sport vazirligining 2025-yil 17-iyuldagi 02-16/7649-sonli dalolatnomasi). Natijada, kurashchilarning kuch sifati, tayanch-harakat apparati koordinatsiyasi va texnik-taktik mahorati darajalari 18,3%ga yaxshilangan;

11-15 yoshli erkin kurashchilarning jismoniy rivojlanish sur'atini muntazam test sinovlari asosida doimiy monitoring qilish yordamida real vaqt rejimidagi mashg'ulot dasturi, jarohatlarni oldini olish, sport motivatsiyasini mustahkamlash va individual yuklamani belgilash bo'yicha takomillashtirilgan uslubiy tavsiyalar yuzasidan taklif va tavsiyalar Farg'ona viloyati Quvasoy shahar sport maktabi erkin kurashchilarining o'quv-trenirovka jarayoniga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Sport vazirligining 2025-yil 17-iyuldagi 02-16/7649-sonli dalolatnomasi). Natijada, kurashchilarning o'quv yili davomidagi kuch, tezkorlik va chidamlilik sifatleri ko'rsatkichlari 17,9%ga oshgan;

11-15 yoshli erkin kurashchilarning biologik xususiyatlarini (mushak-suyak tizimini rivojlanishi, gormonal o'zgarishlarni) inobatga olgan holda differensial yondashuvni qo'llash usullarini takomillashtirish, har bir sportchining jismoniy imkoniyatlarini bosqichma-bosqich va xavfsiz rivojlantirish imkoniyatini kengaytirish bo'yicha taklif va tavsiyalar Farg'ona viloyati Oltiariq tumani sport maktabi erkin kurashchilarining o'quv-trenirovka jarayoniga joriy etilgan

(O‘zbekiston Respublikasi Sport vazirligining 2025-yil 17-iyuldagi 02-16/7649-sonli dalolatnomasi). Natijada, kurashchilarning umumiy jismoniy tayyorgarlik darajasi 15,2%ga oshgan, musobaqalar vaqtida yengil jarohatlar olishi 25%ga kamaygan;

11-15 yoshli erkin kurashchilarning maxsus jismoniy tayyorgarlik ko‘rsatkichlarini an‘anaviy va omilli tahlil qilish asosida, ularning jismoniy sifatlarini statistik jihatdan qiyoslash uslubiyatini, bir yillik tajribaviy dastur doirasida kuch, chidamlilik, tezlik va koordinatsiya qobiliyatlarini rivojlantirishning ustivorligi samaradorligi yuzasidan taklif va tavsiyalar Farg‘ona viloyati sport boshqarmasi tomonidan e‘tirof etilgan va viloyatdagi barcha sport maktablarida qo‘llanilishi bo‘yicha tavsiyalar berilgan. Natijada, viloyatdagi sport maktablarida shug‘ullanadigan yosh kurashchilarning musobaqa tayyorgarligi mezonlarida (kuch, chidamlilik, refleks, chaqqonlik) ko‘rsatkichlari 12,4%ga yetgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot materiallari 4 ta xalqaro va 1 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Tadqiqot mavzusi bo‘yicha jami 10 dan ortiq ilmiy-uslubiy ishlar, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiyasi komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 3 ta maqola (2 ta respublika va 1 ta xorijiy ilmiy jurnallarda) chop etilgan.

Dissertatsiya hajmi va tuzilishi. Dissertatsiya ishi kirish, to‘rtta bobdan iborat, 128 sahifa matn, 19 ta jadval, xulosa, amaliy tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan tashkil topgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi, dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xalqaro ilmiy tadqiqotlarning sharhi, muammoning o‘rganilganlik darajasi, dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti, predmeti, usullari, ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, tadqiqotdan olingan natijalarning ishonchliligi, tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati, joriy etilishi, aprobatsiyasi, e‘lon qilinganligi, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi haqida ma‘lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning “**11-15 yoshli erkin kurashchilarning maxsus jismoniy tayyorgarligini nazariy-metodik asoslari**” deb nomlangan birinchi bobida mazkur yosh oralig‘ida kurashchilar tayyorgarligini ilmiy-nazariy nuqtayi nazardan ko‘rib chiqish, ilmiy adabiyotlar sharhi asosida dolzarb omillarni aniqlash va mashg‘ulot jarayonini takomillashtirish masalalari bayon etilgan. Jahon va mahalliy olimlarning 11-15 yoshli o‘smir sportchilar jismoniy rivojlanishi, balog‘at jarayonlarining fiziologik-psixologik xususiyatlari va maxsus jismoniy tayyorgarlik metodikasi bo‘yicha olib borgan ilmiy izlanishlari, yosh kurashchilarning kuch, chidamlilik, tezkorlik kabi sifatlarini tarbiyalashda tizimli

va bosqichma-bosqich yondashuvning muhimligi, mashqning hajmini va yuklamani yoshga oid fiziologik imkoniyatlariga moslashtirish, jarohatlarni oldini olish va jismoniy sifatlarni uyg'un rivojlantirish masalalari atroflicha yoritilgan. O'smir kurashchilarni ilmiy asosda tayyorlash zarurligi – ya'ni, mushak va suyak tizimini jadal o'sishi, endokrin tizimni qayta shakllanishi, motivatsiya va psixologik barqarorlik kabi qator omillarni inobatga olish lozimligi, o'sish davrida kuch mashqlari va koordinatsion mashqlarni rejalashtirish, texnik-taktik murakkablikni oshirishni pedagogik hamda fiziologik asoslarini o'rganish, davriylik (periodizatsiya) tamoyilini 11-15 yoshli kurashchilarni barkamol rivojlanishi uchun naqadar muhim ekanligi bayon qilingan. Shu bilan birga, faktorli tahlil (FT) kabi zamonaviy ilmiy-uslubiy yondashuvlardan foydalanish – har bir kurashchining maxsus jismoniy tayyorgarlik ko'rsatkichlarini tahlil qilish, test natijalari asosida o'quv-mashg'ulot rejasiga tuzatishlar kiritish imkonini berishi, mazkur uslubiyat yordamida yosh kurashchilarning eng zarur jismoniy sifatlarni aniq belgilab, ularning individual xususiyatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan mashg'ulotlar samaradorligini oshirish mumkinligi ta'kidlangan.

Dissertatsiyaning **“Tadqiqotning usullari va tashkil qilinishi”** deb nomlangan ikkinchi bobida ilmiy-pedagogik tadqiqotlar jarayonida ilmiy-uslubiy adabiyotlarni o'rganish va tahlil qilish, anketa-so'rovnoma, pedagogik kuzatuv, pedagogik testlash, pedagogik tajriba, matematik-statistika (jumladan, omilli tahlil) usullaridan foydalanilganlik hamda tadqiqotlarni tashkil qilinishi to'g'risidagi ma'lumotlar yoritilgan.

Dissertatsiya yuzasidan o'tkazilgan tadqiqotlar uch bosqichda amalga oshirilgan: 1-bosqichda (2021-2022 y.y.): Ushbu davrda tadqiqotning nazariy asosi yaratilib, keyingi eksperimental ishlar uchun tayyorgarlik ko'rildi. Xususan, 11-15 yoshli erkin kurashchilar maxsus jismoniy tayyorgarligiga doir ilmiy-uslubiy manbalar chuqur o'rganilib, tahlil qilindi. Shu bilan birga, dastlabki tashxis tadbirlari (so'rovnomalar, pedagogik kuzatuv va b.) orqali yosh kurashchilarning jismoniy tayyorgarlik holati baholandi. Olingan ma'lumotlar asosida 11–15 yoshli erkin kurashchilarning maxsus jismoniy tayyorgarligini rivojlantirishga yo'naltirilgan yangi metodikaning konsepsiyasi ishlab chiqildi va shu metodika asosida tajriba bosqichi uchun maxsus o'quv dasturi tayyorlandi.

2-bosqichda (2022-2023 y.y.): Bu bosqichda bevosita pedagogik tajriba o'tkazildi. Tajribalarda jami 64 nafar (11–15 yoshli) erkin kurashchi ishtirok etib, ulardan 32 nafari tajriba guruhi, 32 nafari nazorat guruhi tarkibiga kiritildi. Tajriba guruhida mashg'ulotlar yangi metodika asosida ishlab chiqilgan maxsus jismoniy tayyorgarlik dasturi bo'yicha tashkil yetildi. Nazorat guruhidagi sportchilar esa mashg'ulotlarni an'anaviy mashg'ulot tizimi bo'yicha davom ettirdilar. Bosqich yakunida har ikkala guruh sportchilarining maxsus jismoniy tayyorgarlik ko'rsatkichlari qayta o'lchanib, keyingi tahlil uchun natijalar yig'ildi.

3-bosqichda (2023-2024 y.y.): Ushbu yakuniy bosqichda tajriba davomida to'plangan natijalar chuqur tahlil qilindi. Matematik-statistik usullar yordamida tajriba va nazorat guruhlari ko'rsatkichlari solishtirilib, yangi metodikaning samaradorligi ilmiy asosda baholandi. Tadqiqot natijalari asosida dissertatsiyaning tegishli boblari yozilib, umumlashtiruvchi xulosalar shakllantirildi. Shuningdek,

ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqilib, ularning ayrimlari tajriba tariqasida amaliyotga tatbiq etildi.

Dissertatsiyaning **“11-15 yoshli erkin kurashchilarning maxsus jismoniy tayyorgarlik holatini tahlili va uning darajasini oshirishni metodologik asoslari”** deb nomlangan uchinchi bobida 11-15 yoshli erkin kurashchilarning maxsus jismoniy tayyorgarlik darajasini o‘rganish maqsadida tashkil etilgan anketa-so‘rovnoma natijalari tahlili bayon qilingan. Anketa-so‘rovnoma, asosan, ularning jismoniy faollik, tayyorgarlik va mashg‘ulotlardagi samaradorligini baholashga yo‘naltirilgan bo‘lib, kurashchilarning shaxsiy jismoniy sifatlari va mashg‘ulot jarayonlariga bo‘lgan munosabatlari aniqlandi. Anketa-so‘rovnomada jami 145 nafar yosh erkin kurashchilar ishtirok etgan va ulardan jismoniy tayyorgarlikning asosiy jihatlari, sport natijalarini yaxshilash uchun qanday mashg‘ulotlarga e‘tibor qaratish zarurligi va mashg‘ulot jarayonidagi qiyinchiliklar haqidagi fikrlari, har bir ishtirokchining jismoniy xususiyatlari, mashg‘ulotga bo‘lgan munosabati va natijalarga ta‘sir qiluvchi omillar o‘rganilgan. Olingan natijalar mazkur tadqiqotning asosiy maqsadlariga yerishishda muhim o‘rin tutib, yosh kurashchilarning mashg‘ulot jarayonlarini optimallashtirishga, yosh kurashchilarning jismoniy rivojlanish darajasini aniqlashga, ularning jismoniy tayyorgarligini yanada yaxshilash bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga asos bo‘ldi.

Anketa-so‘rovnomada ishtirok etgan kurashchilarni 30% (43 nafar) 1-3 yil davomida shug‘ullanishini, 40% (58 nafar) 4-5 yil va 30% (44 nafar) 5 yildan ortiq kurash bilan shug‘ullanishini ta‘kidlashgan. Demak, yosh kurashchilar orasida katta tajribaga ega bo‘lganlar ham, boshlang‘ich darajadagi sportchilar ham mavjud bo‘lib, ularning birinchilari uchun asosiy muammo texnikani o‘zlashtirish va chidamlilikni rivojlantirishdan iborat, keyingi bosqichda shug‘ullanuvchilar kurashning asosiy tamoyillarini o‘zlashtirish, ularni amaliy mashqlar bilan mustahkamlash, tezkorlik va dinamik harakatlarni yaxshilashga ko‘proq e‘tibor berishlari va 5 yildan ortiq shug‘ullanayotganlar asosiy mashqlardan tashqari, jismoniy va taktik jihatdan yanada murakkab mashqlarga e‘tibor berishlari hamda rivojlanish darajasini saqlab qolishlari kerak.

Respondentlarning 50% (73 nafar) haftada 3-4 marta, 20% (29 nafar) har kuni mashg‘ulot o‘tkazishlarini, qolgan 30% (43 nafar) esa, haftasiga 1-2 martadan ortiq mashg‘ulot o‘tkazmasliklarini bildirishgan. Ishtirokchilarning 35% (51 nafar) kuch sifatini, 30% (44 nafar) tezkorlikni, 20% (29 nafar) chidamlilikni va 15% (21 nafar) barcha jismoniy sifatlarni rivojlantirishni muhimligini, 40% (58 nafar) parterdan chiqishni eng qiyin, 30% (43 nafar) orqaga tashlash texnikasini, 30% (44 nafar) sportchilar boshqa texnikalarda qiyinchiliklarga duch kelganliklarini, 50% (73 nafar) yoshlar umumiy charchoqni, 30% (44 nafar) nafas qisilishini, 20% (29 nafar) mushak og‘riqlarini ko‘proq his qilishlarini bildirishgan.

Bu natijalar, mashg‘ulotlarning davriyligini oshirish va jadalligini kuchaytirish, chidamlilikni rivojlantirishga, parter texnikasini, orqaga tashlash texnikasini mustahkamlashga yo‘naltirilgan mashqlarni kamaytirmaslik, umumiy charchoqning oldini olish va mushaklarning tiklanishini tezlashtirish uchun mashg‘ulotlarning turli jihatlarni hisobga olish kerakligini ta‘kidlaydi.

Tajribalarda 11-12 yoshli erkin kurashchilarning maxsus jismoniy tayyorgarligini aniqlash bo'yicha o'tkazilgan testlarning natijalarini (1-jadvalga qarang) tahlil qilish, sportchilarning jismoniy tayyorgarligini sezilarli darajada yaxshilash va buning uchun yangi metodikalar ishlab chiqish zarurligini ko'rsatadi, chunki sportchilarning jismoniy tayyorgarligi darajasi, ularni sportdagi muvaffaqiyatini ta'minlashda, salomatligini mustahkamlashda va harakat koordinatsiyasini yaxshilashda hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Ushbu tadqiqotda 11-15 yoshdagi erkin kurashchilar uchun mashg'ulot dasturini ilmiy asosda optimallashtirish maqsadida Faktorli tahlil metodikasi qo'llanildi. Dastlab sportchilarning tezlik, kuch, chidamlilik, chaqqonlik, muvozanatni saqlash kabi jismoniy sifatlarini baholovchi bir qator mashqlar va test ko'rsatkichlari (jami 20 ta) yig'ildi. Har bir ko'rsatkich bo'yicha olingan natijalar Z-ballga (standartlashtirilgan ball) o'tkazildi. Standartlashtirish turli o'lchov birliklaridagi natijalarni bir xil shkalaga keltirib, ularni to'g'ridan-to'g'ri solishtirish va o'zaro bog'liqligini to'g'ri aniqlash imkonini beradi.

1-jadval

11-12 yoshli erkin kurashchilarning maxsus jismoniy tayyorgarlik ko'rsatkichlari statistik tahlili, (n=92)

№	Testlar	11 yoshli kurashchilar			12 yoshli kurashchilar			Absolyut o'sish	Nisbiy o'sish	t	P
		\bar{X}	σ	V, %	\bar{X}	Σ	V, %				
1.	Yotgan holatda ikkita 3 kg lik gantelni bosh ustida ko'tarish, marta	25	2,66	10,62	25,96	3,53	13,61	2	8	2,08	<0,05
2.	Oyoq ko'tarilgan holda qo'llarda yurish, m	3,45	0,38	11,08	3,63	0,48	13,37	0,18	5,22	2,78	<0,05
3.	Past startdan 10 m yugurish	3,90	0,42	10,86	4,05	0,49	12,10	0,15	3,85	2,17	<0,05
4.	Arqonga chirmashib chiqish, marta	1,8	0,27	14,78	1,87	0,23	12,48	0,07	3,89	2,07	<0,05
5.	Joyidan turib uzunlikka sakrash, sm	142,8	3,70	1,88	144,6	2,40	1,66	1,8	1,26	2,24	<0,05
6.	Tirsaklarga tayangan holda plankada jismoniy kuch mashqlari, s	52,6	2,30	4,37	54,3	2,68	4,94	1,7	3,23	2,15	<0,05
7.	Yerga qarab yotgan holatda sakrash (20 metr)	32,3	2,26	7	33,9	1,71	5,04	1,6	4,95	2,52	<0,05
8.	Arg'imchoq bilan 1 daqiqa davomida sakrashlar, marta	56,2	2,33	4,15	57,7	2,28	3,95	1,5	2,67	2,06	<0,05
9.	Yugurish 30 m, s	5,13	0,54	10,51	5,38	0,69	12,88	0,25	4,87	2,73	<0,05
10.	Qo'llarni ko'targan holatda gavadani burishlar, marta	28,5	2,29	8,04	30,29	2,86	9,44	1,79	6,28	2,18	<0,05
11.	30 metr Pozali yugurish, s	6,60	0,68	10,26	7,01	0,76	10,78	0,41	6,21	3,88	<0,01
12.	Tormozlanish bilan yugurish mashqlari 5-15 m, s	4,9	0,51	10,50	5,11	0,64	12,47	0,21	4,29	2,42	<0,05
13.	Charchoqni boshqarish uchun mashqlar	4,20	0,43	10,14	4,41	0,54	12,18	0,21	5	3,04	<0,01

14.	Chalqancha yotgan holatda shtangani ko'tarish 5 kg/ 10-12 marta	17,1	1,73	10,12	18,59	1,77	9,52	1,49	8,71	2,69	<0,05
15.	Arqonda tortilishlar 8 marta	3,80	0,41	10,70	3,96	0,54	13,67	0,16	4,21	2,26	<0,05
16.	Turnikda osilib turish 20-30 s	31,19	2,43	7,79	32,89	2,21	6,72	1,70	5,45	2,31	<0,05
17.	1 daqiqa davomida qisqa masofaga yoniga sakrash	26,29	1,97	7,49	27,75	2,18	7,86	1,46	5,55	2,22	<0,05
18.	Yotgan holatda qo'llarga tayanib, qo'llarni bukish va yozish (marta)	24,2	1,78	7,36	25,80	1,90	7,36	1,60	6,62	2,75	<0,05
19.	Burilishlar bilan yugurish, s	7,10	0,98	13,86	7,39	0,99	13,45	0,29	4,08	2,01	<0,05
20.	20 metrga yarimoy bo'ylab yugurish, s	6,1	0,86	14,17	6,37	0,83	12,98	0,27	4,43	2,17	<0,05

Z-ball formulasi. Bu yerda X – sportchining alohida mashq bo'yicha ko'rsatkichi, μ – shu mashq bo'yicha guruhning o'rtacha qiymati, σ – standart og'ish. Natijalarni Z-ballga standartlashtirish natijasida har xil test ko'rsatkichlarini o'zaro taqqoslash va statistik tahlil qilish osonlashadi. Keyingi qadamda, barcha standartlashtirilgan ko'rsatkichlar orasidagi o'zaro bog'liqlik korrelyatsion matritsa shaklida tuzildi.

$$Z = \frac{X - \mu}{\sigma}$$

1-rasm. Z-ball formulasi

Pirson korrelyatsiya koeffitsienti formulasi. Bu yerda \sum – yig'indi belgi, X_i, Y_i : Ikki qatordagi ma'lumotlar (mashq natijalari).

μ_x, μ_y : Har bir qatorning o'rtacha qiymati.

\sum : Barcha natijalar bo'yicha umumlashtirildi.

Qadamlar:

Har bir mashq yoki natijaning o'rtacha qiymati (μ_x) hisoblandi.

Har bir natija uchun o'rtacha qiymatdan farqi ($X_i - \mu_x$) aniqlandi.

Ikki mashq o'rtasidagi farqlar ko'paytiriladi va yig'indi hisoblanadi ($\sum(X_i - \mu_x)(Y_i - \mu_y)$).

Har bir mashq uchun farqlarning kvadratlari hisoblandi ($\sum(X_i - \mu_x)^2$) va kvadrat ildizini olindi.

Korrelyatsiya koeffitsienti formula asosida hisoblanadi.

Ikki o'zgaruvchi (mashq natijasi) orasidagi bog'liqlik darajasi ushbu formula orqali Pirson korrelyatsiya koeffitsienti R sifatida hisoblandi. Korrelyatsion matritsada 20 ta mashq ko'rsatkichlarining barchasi bir-biri bilan bog'lanish darajasiga yega bo'lib, aynan shu matritsa keyinchalik faktorli tahlil (asosiy komponentlar usuli) o'tkazish uchun asos bo'lib xizmat qildi. Asosiy komponentlar usuli tanlanganining sababi – ko'p sonli o'zgaruvchilarni kichik

sonli omillarga ajratib, eng muhim omillarni aniqlash va ortiqcha, ahamiyatsiz ma'lumotlarni tahlildan chiqarib tashlashdir.

$$r = \frac{\sum(X_i - \mu_X)(Y_i - \mu_Y)}{\sqrt{\sum(X_i - \mu_X)^2} \cdot \sqrt{\sum(Y_i - \mu_Y)^2}}$$

2-rasm

korrelyatsiya

koefitsientini hisoblash formulasi

Faktorli tahlil natijasida 20 ta mashqning o'zaro bog'liqlik tarkibidan uchta asosiy omil ajratib olindi. Ushbu uch omil jami asosiy jismoniy sifatlarni guruhlarini aks ettirib, mashg'ulot dasturining tuzilmasini optimallashtirishga imkon berdi.

Birinchi omil – tezkorlik va kuchlilik omili – o'z ichiga asosan tezlik (sprint, sakrash) va kuch-quvvat (masalan, tortinish, yuk ko'tarish) bilan bog'liq mashqlarni qamrab oldi. Bu omilning shakllanishi tezkorlik va portlovchi kuch ko'rsatkichlari o'zaro yuqori korrelyatsiyada ekanligi bilan izohlanadi, ya'ni kuchliroq sportchilar odatda tezkorlik testlarida ham yuqori natija ko'rsatganlar.

Ikkinchi omil – koordinatsiya va chidamlilik omili – muvofiqlashtirish qobiliyatini talab qiladigan hamda umumiy jismoniy bardoshlilikni sinovchi mashqlar guruhidan tarkib topdi. Masalan, murakkab harakatli kombinatsiyalarni bajarish olish ko'nikmasi va uzoq muddatli yuklamalarga dosh berish qobiliyati mazkur omilda birga namoyon bo'ldi. Bu shuni anglatadiki, yaxshi chidamlilikka ega bo'lgan yosh kurashchilar koordinatsion mashqlarda ham barqaror yuqori natija ko'rsatdilar.

Uchinchi omil – muvozanat va chaqqonlik omili – balans saqlash bilan bog'liq statik mashqlar va epchillik, chaqqonlik talab etiladigan tezkor harakatli mashqlarni o'z ichiga oldi. Ushbu omil tarkibiga, masalan, muvozanatni saqlash testlari hamda qisqa masofada chaqqonlik bilan harakatlanish kabi mashqlar kirib, ularda sportchining tana ustidan nazorati va tez o'zgaruvchan harakatlarni bajarish qobiliyati uyg'un namoyon bo'lgan. Aniqlangan har bir omil tarkibidagi mashqlar mazkur omil nomi bilan atalgan jismoniy sifatlarning rivojlanish darajasini ifodalaydi.

Shu tariqa, faktorli tahlil yordamida 20 ta mashq orasidan eng informativ va samarali mashqlar ajratib ko'rsatildi. Boshqa tadqiqotlarda ham xuddi shunga o'xshash tarzda jismoniy tayyorgarlik ko'rsatkichlari bir necha omilga birlashtirilgan. Masalan, TRX funksional mashqlarini baholash bo'yicha o'tkazilgan tadqiqotda faktor tahlili uchta asosiy omilni aniqlagan, birinchi omil yuqori tana kuch mashqlarini, ikkinchi omil esa pastki tana (son va to'piq) mashqlarini o'z ichiga olgan kuzatilgan. Bu, faktorli tahlil natijalarini talqin qilishda har bir omil ortida qaysi jismoniy sifatlarni majmui yotganini tushunishga yordam beradi. Ushbu tadqiqotda har bir omilga yuklanishi eng yuqori bo'lgan mashqlar mashg'ulot dasturining bazaviy elementi sifatida tavsiya etildi. Ya'ni, mashg'ulot dasturini tuzishda, avvalo, har bir omilni ifodalovchi eng samarali mashqlar tanlab olindi va ortiqcha takrorlanuvchi mazmundagi mashqlar chiqarib tashlandi. Natijada dastur tarkibi ixchamlanib, lekin, kurashchilar uchun muhim

bo'lgan tezkorlik, kuchlilik, chidamlilik, koordinatsiya, muvozanat va chaqqonlik kabi asosiy jismoniy sifatlar kompleks rivojlantirilishi ta'minlandi.

Faktorli tahlil metodikasini qo'llash orqali 11-15 yoshli erkin kurashchilar mashg'ulot dasturi ilmiy jihatdan asoslangan tarzda optimallashtirildi. Eng muhim jismoniy sifatlarni rivojlantiruvchi mashqlar aniqlanib, mashg'ulot rejasiga kiritildi va ikkinchi darajali ahamiyatga ega bo'lgan mashqlar chiqarib tashlandi. Bu yondashuv yosh sportchilarning tayyorgarlik darajasini oshirishda yaxshiroq natijalarga olib keldi, chunki u har bir sportchiga mashg'ulot yuklamalarini kerakli yo'nalishlarga to'g'ri taqsimlash imkonini berdi. Faktorli tahlil yordamida olingan natijalar kelgusida boshqa sport turlari uchun ham universal ahamiyatga ega bo'lishi mumkin. Xususan, har bir sport turi uchun mos ravishda ko'plab test natijalarini tahlil qilib, o'sha sport turi uchun muhim bo'lgan asosiy omillarni aniqlash va mashg'ulot dasturlarini shu omillarga yo'naltirib tuzish mumkin. Demak, statistik tahlil va omilli yondashuvlar sport mashg'ulotlarini takomillashtirishda keng qo'llash imkoniyatiga ega bo'lib, yosh sportchilarning maksimal rivojlanishini ta'minlashga xizmat qildi.

1-omil – kuch va tezkorlik mashqlari

Bu omil tarkibiga kuch va tezkorlikni talab qiladigan mashqlar kiritilgan. Masalan, qisqa masofaga (30 m) tez yugurish, yerga qarab qo'llarga tayanib yotgan holatda 20 metrgacha sakrash, (min/s), chalqancha yotgan holatda 3 kg.li gantellarni bosh ustida ko'tarish (marta), yotgan holatda qo'llarga tayanib, qo'llarni bukish va yozish, chalqancha yotgan holatda 15 kg.li shtanga ko'tarish (marta) singari eksploziv (portlovchi) kuchni rivojlantiruvchi mashqlar. Ushbu omil bo'yicha Z-ball qiymatlari yuqori bo'lgan mashqlarni sportchilarning portlovchi kuchi va tezkorlik qobiliyatlarini shakllantirish uchun asosiy mashg'ulotlar rejasiga kiritish tavsiya etiladi.

2-omil – egiluvchanlik va chidamlilik mashqlari

Ikkinchi omil tarkibiga harakatlarni muvofiqlashtiruvchi va uzoq vaqt davomida chidamlilik qobiliyatini talab etadigan mashqlar kiritilgan. Masalan, 1 daqiqa davomida chap va o'ng tomonga (yonga) sakrash (marta), chalqancha yotgan holatda 15 kg.lik shtanga ko'tarish (marta), yerga qarab yotgan holatda 20 metrgacha sakrash, (min/s), arqonga chirmashib chiqish va tushish (marta) mashqlari. Ushbu guruh mashqlarini bajarish bo'yicha natijalar yuqori bo'ldi, ular sportchining mushaklarini chidamliligi, koordinatsiyasi va izchil ritmda ishlash qobiliyatini yaxshilashga yordam beradi.

3-omil – muvozanatni saqlash va chaqqonlik mashqlari

Uchinchi omil tarkibiga muvozanatni saqlash va chaqqonlikni talab qiladigan mashqlar kiritilgan. Masalan, yotgan holatda qo'llarga tayanib, qo'llarni bukish va yozish, 30 m pozali yugurish, arg'imchoq bilan sakrashlar (1 daqiqa davomida), burilishlar bilan 30 m yugurish, tez yugurish 30 m kabi mashqlar kiritilgan. Ushbu guruh mashqlari erkin kurash sport turida chap yoki o'ng tomonga tez egilish, og'ish, aylanish kabi texnik harakatlarni muvozanatni buzmasdan bajarish uchun juda muhim bo'lib, ularni muntazam takrorlash sportchining muvozanat va chaqqonlik qobiliyatlari darajasini oshiradi. Faktorli tahlil natijasida 20 ta mashqlar

uchta asosiy omillarga bo'lingan holda baholandi va ularning ichidan Z-ball va korrelyatsion tahlil natijalari yuqori bo'lganlari tanlab olindi (2-jadvalga qarang).

Faktorli tahlil jismoniy tayyorgarlik mashqlarini ilmiy asosda saralash va ular o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash, mashg'ulot jarayonini maksimal darajada samarali tashkil etish imkonini berdi. Eng muhimi, ushbu jarayon har bir sportchining individual xususiyatlarini inobatga olgan holda olib borilishi hisobiga, 11-15 yoshli erkin kurashchilarning tezkorlik, kuch, chidamlilik, koordinatsiya va chaqqonlik kabi asosiy sifatlari yanada yaxshilandi, sport formasi izchil ravishda oshib bordi.

11-15-yoshli erkin kurashchilarning haftalik maxsus jismoniy tayyorgarlik mashqlar reja-jadvali

HAFTA KUNI	FAKTOR	MASHQLAR	DAVOMIYLIK (DAQ)	TAKRORLA SHLAR (SONI)	YURAK URISH SONI (YUQCH)	DAM OLISH VAQTI (SONIYA)
DUSHANBA	1. FAKTOR – TEZKORLIK VA KUCHLILIK	1. Yotgan holatda 5 kg lik gantelni bosh ustida ko'tarish	4 daq	12 marta	120	60 son
		2. Osilib turgan arqonga chiqib, tushish	2 daq	3 marta	120	60 son
		3. Yerga qarab yotgan holatda sakrash	1 daq	8 marta	120	60 son
CHORSHANBA	2. FAKTOR – KOORDINATSIYA VA CHIDAMLILIK	1. Chalqancha yotgan holatda 15 kg shtanga ko'tarish	4 daq	12 marta	120	60 son
		2. Arg'imchoq bilan sakrash	1 daq	3 marta	120	60 son
		3. Chap tomonga (yonga) sakrash	1 daq	3 marta	120	60 son
JUMA	3. FAKTOR – MUVOZANAT SAQLASH VA CHAQQONLIK	1. Yerga tayangan holda qo'llarni bukib, yozish	2 daq	12 marta	120	60 son
		2. 30 metr Pozali yugurish	1 daq	2 marta	120	60 son
		3. Qisqa masofaga tezkor yugurish (30 metr)	2 daq	4 marta	120	30 son

Dissertatsiyaning “**11-15 yoshli erkin kurashchilarning maxsus jismoniy tayyorgarligi natijalarini tahlil qilish**” deb nomlangan to‘rtinchi bobida yangi ishlab chiqilgan metodika asosida tuzilgan maxsus jismoniy tayyorgarlik dasturining samaradorligini tekshirish uchun 11-12, 12-13, 13-14 va 14-15 yoshdagi sportchilar bilan pedagogik tajriba o‘tkazildi. Har bir yosh toifasida tajriba va nazorat guruhlarining natijalari tajriba boshlanishidan va yakunida olingan ko‘rsatkichlar bo‘yicha solishtirib, statistik jihatdan baholandi. 11-15 yoshli erkin kurashchilarning maxsus jismoniy tayyorgarligi bo‘yicha tajriba va nazorat guruhlari natijalari yosh toifalari kesimida tahlil qilindi. 11-12 yoshli sportchilar natijalarini tahlil qilganda tajriba guruhida “Yotgan holatda 5 kg.li gantellarni bosh ustida ko‘tarish” mashqida natija $26\pm 6,98$ martadan $29\pm 6,34$ martaga oshdi va bu farq statistik jihatdan ishonchli ($t=2,46$; $P<0,05$). Nazorat guruhida esa natija $25\pm 5,56$ martadan $27\pm 8,78$ martaga o‘zgardi, bu o‘zgarish ishonchsiz hisoblandi ($t=1,49$; $P>0,05$). “Arqonga chirmashib chiqish va tushish” bo‘yicha tajriba guruhida natija $2,5\pm 2,3$ martadan $3,5\pm 1,16$ martagacha ishonchli tarzda yaxshilandi ($t=3,01$; $P<0,01$), nazorat guruhida esa bu o‘zgarish ancha kichik va ishonchsiz bo‘ldi ($2\pm 2,3$ dan $3\pm 4,16$ gacha; $t=1,63$; $P>0,05$). “Chalqancha yotgan holatda shtanga ko‘tarish 15 kg” mashqida tajriba guruhidagi o‘shish $19\pm 1,88$ martadan $23\pm 2,58$ martagacha ($t=9,85$; $P<0,001$) kuzatildi, nazorat guruhidagi o‘shish esa nisbatan kichik va ishonchlilik darajasi pastroq bo‘ldi ($20\pm 3,77$ martadan $22\pm 4,90$ martagacha; $t=2,51$; $P<0,05$).

